ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

OG‘ZAKI NUTQDA SINTAKTIK VA LUG‘AVIY BIRLIKLARNING TO‘G‘RI QO‘LLANILISHI

Samarqand davlat pedagogika
instituti O‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 1-bosqich talabasi
Norboboyeva Gulzoda G‘anisherovna
Ilmiy rahbar: **S.Sh.Pardayev**
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada og‘zaki nutqda sintaktik va lug‘aviy birliklarning to‘g‘ri qo‘llanilishi keltirib o‘tilgan. Ayniqsa, og‘zaki nutq inson hayotining har bir sohasida muhim o‘rin tutadi: o‘qishda, ishda, mehnatda, rasmiy yig‘ilishlarda, ijtimoiy muloqotda va kundalik suhbatlarda. Har qanday millatning madaniy darajasi, fikrlash kengligi va estetik didi, avvalo, uning nutq madaniyatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, og‘zaki nutqning tozaligi, aniqligi va ta’sirchanligi zamonaviy tilshunoslikda alohida o‘rganilayotgan masalalardan biri ekanligi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: intonatsiya, ijtimoiy muloqot, estetik did, nutq madaniyati, sintaktik tuzilma, intervyu, debat, teleeshittirish, qaratuvchi va qaralmish.

Abstract. This article discusses the correct use of syntactic and lexical units in oral speech. In particular, oral speech plays an important role in every sphere of human life: in study, work, labor, official meetings, social communication and everyday conversations. The cultural level, breadth of thinking and aesthetic taste of any nation are reflected, first of all, in its speech culture. Therefore, it is highlighted that the purity, accuracy and expressiveness of oral speech are one of the issues being studied separately in modern linguistics.

Keywords: intonation, social communication, aesthetic taste, speech culture, syntactic structure, interview, debate, television broadcast, addressee and addressee.

KIRISH.

Til – inson tafakkurining asosiy ifoda vositasi, nutq esa bu tilning amaliy ko‘rinishidir. Ayniqsa, og‘zaki nutq inson hayotining har bir sohasida muhim o‘rin tutadi: o‘qishda, ishda, mehnatda, rasmiy yig‘ilishlarda, ijtimoiy muloqotda va kundalik suhbatlarda. Har qanday millatning madaniy darajasi, fikrlash kengligi va estetik didi, avvalo, uning nutq madaniyatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, og‘zaki nutqning tozaligi, aniqligi va ta’sirchanligi zamonaviy tilshunoslikda alohida o‘rganilayotgan masalalardan biridir.

Og‘zaki nutqda sintaktik va lug‘aviy birliklarning, bundan tashqari ma’nodosh so‘zlarning ham qo‘llanish o‘rni beqiyosdir. Masalan, sintaktik (gap tuzilishi) va lug‘aviy (so‘z boyligi) birliklarning to‘g‘ri qo‘llanishi fikrning aniq, lo‘nda va ifodali chiqishini ta’minlaydi. Har bir nutq ishtirokchisi uchun ikki narsa, ya’ni to‘g‘ri so‘z tanlovi va sintaktik tuzilma orqali o‘z maqsadini aniq yetkaza olish nutq madaniyatining muhim shartlaridan hisoblanadi.

O‘g‘zaki nutq o‘zi nima?

O‘g‘zaki nutq – bu tovush orqali amalga oshiriladigan, real vaqt ichida aytiladigan muloqot shaklidir. Masalan: suhbat, nutq so‘zlash, darsda javob berish, intervyu, muhokama, debat (fikr to‘qnashuvi), radio va teleeshittirishlar.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-11

Asosiy xususiyatlari:
-bevosita muloqotga asoslanadi;
-intonatsiya, pauza, ohang, talaffuz, mimika va imo-ishoralar muhim rol o‘ynaydi;
-tashqi tayyorgarliksiz, ko‘p hollarda tabiiy shaklda kechadi;
-nutqning soddligi va tezligi yuqori bo‘lishligidir.

Og‘zaki nutq yozma nutqdan bir necha belgilari bilan farqlanadi. Avvalo, u bevosita muloqot jarayonida yuz beradi. Ammo bunda sodda va tabiiy fikr ifodasi ustun bo‘ladi. Bu degani, tildagi me’yorlardan chetga chiqish degani emas. Aksincha, og‘zaki nutq madaniyatini shakllantirish uchun tilning grammatik, leksik va fonetik qonuniyatlariga rioya qilish zarurligini anglatadi.

Sintaktik birliklar – bu so‘z birikmasi, gap va murakkab gap shakllaridir. Ular nutqning mantiqiy va grammatik asosini tashkil etadi.

Og‘zaki nutqda sintaktik birliklarning to‘g‘ri qo‘llanilishi deganda nimani tushunamiz?

Bunda:
- gap tuzilishining izchilligi;
- so‘z tartibi, ya’ni ma’noni to‘g‘ri ifodalash uchun so‘zlarning to‘g‘ri o‘rinda qo‘llanishi;
-qaratuvchi va qaralmish, ega va kesim orasidagi moslik saqlanishi zarur. Masalan, “Men bugun kitob o‘qiydi” emas, “Men bugun kitob o‘qiyman” desak ega va kesim mosligini ko‘rishimiz mumkin.
- sintaktik me’yorlarga amal qilish. Bu degani, ortiqcha so‘zlar takrori va noaniq bog‘lanishlardan saqlanish demakdir.

Sintaktik me’yorni buzish yoki to‘g‘ri qo‘llamaslik nutqning mantiqiyligi yo‘qolishiga sabab bo‘ladi . Masalan, “Men siz bilan bugun suhbatlashmoqchiman” degan gap grammatik jihatdan to‘g‘ri va aniq ifodalangan. Ammo “Bugun siz bilan men suhbatlashmoqchiman” kabi o‘zgartirishlarda urg‘u o‘rni o‘zgaradi, bu esa mantiqiy ma’noga ta’sir ko‘rsatadi.

Lug‘aviy birliklar – bu tilning asosiy boyligi bo‘lgan so‘z, frazeologik birikmalar, atamalar, antonim va sinonimlar tizimidir. Ularning og‘zaki nutqda to‘g‘ri qo‘llanishi so‘zlovchining so‘z boyligi va til sezgisi bilan chambarchas bog‘liqdir .

Lug‘aviy birliklarni to‘g‘ri qo‘llash deganda:
- so‘z ma’nosiga qarab tanlash (ko‘chma ma’noda yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatish);
-sharoitga mos, madaniyatli so‘zlarni qo‘llash;
-parazit so‘zlar (“ya’ni”, “narsa”, “bilamizmi”, “aniqmasu”) dan saqlanish;
-dialekt va jargonlarni rasmiy yoki jamoaviy nutqda ishlatmaslik tushuniladi.

Masalan, rasmiy suhbatda “gaplashmoq” o‘rniga “muloqot qilish”, “so‘z yuritish” kabi neytral shakllar qo‘llaniladi yoki rasmiy nutqda “Bu film juda zo‘r bo‘ladi” emas, balki “Bu film juda ajoyib chiqadi” desak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Lug‘aviy birliklar ahamiyati shundan iboratki:
-fikr ifodasini boyitadi;
-tinglovchiga ta’sirchanlikni oshiradi;
-so‘zlovchi nutqining madaniyatini ko‘rsatadi.

Bu mavzu bizga nima uchun kerak? Nimaga o‘rganyapmiz degan savol hammada tug‘iladi. Birinchidan, bizni tarbiyaviy jihatdan odobli, madaniyatli so‘zlovchi bo‘lishimizga yordam beradi. Boshqa tomondan qaraydigan bo‘lsak, ijtimoiy, kasbiy va psixologik jihatlardan ham bizni komil inson bo‘lishimizga yordam beradi.

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261,SJIF 2022-2.889, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

VOLUME-5, ISSUE-11

A.Madleyev ta'kidlaganidek, "nutqning leksik tozaligi – so'z tanlash madaniyatidir, bu madaniyat inson tafakkurining aniqligini belgilaydi". Shu sababli, lug'aviy birliklarni joyida ishlatish, so'zlovchining fikr aniqligini ta'minlaydi.

"Og'zaki nutq madaniyati – bu faqat to'g'ri talaffuz yoki grammatikani bilish emas, balki muloqot etikasiga ham amal qilishni anglatadi", – deydi, A. G'ulomov o'zining "Nutq madaniyati asoslari" kitobida.

Til me'yorlariga amal qilish nafaqat nutqni chiroyli qiladi, balki inson shaxsiyatining madaniy darajasini ham aks ettiradi. Shu sababli, maktab va oliy ta'lim tizimida nutq madaniyatini o'qitish dolzarb masala hisoblanadi.

Demak, bu mavzu nafaqat tilshunoslik nazariyasida, balki har bir insonning amaliy hayotida ham muhim o'rin tutadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki, og'zaki nutqda sintaktik va lug'aviy birliklarning to'g'ri qo'llanilishi – bu faqat grammatik masala emas, balki madaniy va estetik hodisadir. Har bir shaxs til me'yorlariga rioya qilgan holda fikrini aniq, to'liq va ta'sirchan ifoda etishga intilishi kerak. Og'zaki nutq madaniyatini shakllantirish, uni til me'yorlariga mos tarzda rivojlantirish har bir so'zlovchining burchidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Madlayev. Til va nutq madaniyati. Toshkent, Fan, 2005
2. M. Jo'rayev. O'zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati: Toshkent, Universitet 2010
3. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. Toshkent, Ma'naviyat, 2008
4. Sh. Rahmatullayev. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, o'qituvchi, 1996
5. A. G'ulomov. Nutq madaniyati. Toshkent, NMIU, 2018
6. G'. Abdurahmonov. Tilshunoslikka kirish. Toshkent, Fan, 2002